

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan

№ 3 (66284)
2001 yil 18 yanvar, payshanba

Sotuvda erkin narhda

XAYR, XX ASR!

Yaqinda O'zbekiston Badiiy Akademiyasining Markaziy ko'rgazmalar zalida „Sog'lom avlod uchun“ Xalqaro xayriya jamg'armasi va Badiiy Akademiya tomonidan tashkil etilgan bolalar ijodiga bag'ishlangan „Xayr, XX asr! Salom, XXI asr!“ deb nomlangan tadbir o'tkazildi.

2000 yili Chexiya Respublikasining Liditsa shahrida o'tkazilgan „Men o'qigan eng qiziqarli kitob“, „Vatanim va tabiat“, „Eng yaqin do'stim“, „Katta bo'lganimda kim bo'laman“ deb nomlangan Xalqaro bolalar ko'rgazmasi bo'lib o'tgan edi. Badiiy akademiya tomonidan O'zbekistonning Nukus, Jizzax, Shahrisabz, Samarqand, Navoiy, Andijon, Guliston, Xorazm va boshqa shaharlaridan 35 ta iqtidorli bolalarning suratlari ko'rik-tanlovda qatnashish uchun yuborilgan edi.

Ko'rik tanlovda O'zbekistonlik yosh rassom bolalar to'rtta medal va o'n oltita diplomlarni qo'lga kiritdilar. G'oliblarga mukofotlarni Chexiya Respublikasining O'zbekistondagi

favqulodda va muxtor elchisi janob Yaroslav Gudva taqdim etdi.

So'ng, 2001 yili Yaponiyaning poytaxti Tokio shahrida bo'lib o'tadigan „Xayr, XX asr! Salom, XXI asr“ deb nomlangan bolalar surat xatlari ko'rgazmasida ishtirok etishga tayyorlangan 150 nafar yosh rassomlarning 160 ta suratlari namoyish etildi. Ko'rgazmada Badiiy

Akademiyaning Toshkent shahrida va barcha viloyatlardagi litsey-internatlarida, maktablarda, nogiron bolalar Markazlarida ta'lim olayotgan bolalarning suratlari qo'yildi. Suratlarda Yaponiyada ko'p yillardan beri an'anaga aylangan tartibda, ya'ni konvertlar kattaligida

SALOM, XXI ASR!

tayyorlandi. Ya'ni, ochiq surat xatlar shaklida (Yaponiya „Etegami“ - „E“ - surat, „tegami“ - xat deyilarkan) shaklida edi. Yaponlar shunday ko'rik tanlovda ishtirok etish uchun butun dunyo bolalarini taklif qilisharkan. Yana bir qiziqarli tomoni, Yaponiyada bo'lib o'tadigan ko'rik tanlov g'olibi deb tanilgan suratlar maxsus idishlarda - kapsulalarda 30 yil saqlanarkan. 30 yildan keyin ochilib, g'oliblar taqdirlanarkan.

Har ikkala bosqich tadbirida ishtirok etayotgan bolalarga „Sog'lom avlod uchun“ xayriya jamg'armasi tomonidan tayyorlangan sovg'alar topshirildi.

Oq yo'l Sizlarga - aziz ijodkor bolajonlar!

Temur RO'ZIMATOV.

YAXSHILIKNING QANOTI BOR

Menga katta buvim doim qo'lingdan kelsa yaxshilik qil, kelmasa yomonlik ham qilma, deydilar. Yaxshi bilan yursang- yetarsan murodga, yomon bilan yursang - qolarsan uyatga, deb xalq mehriga, el olqishiga sazovor bo'lishga bizni undaydilar.

Umarbek akani qishloqda kattayu kichik birdek hurmat qiladi. Ko'pchilik maktabdosh do'stlarim u insondek bo'lishni orzu ham qiladilar. Bolalik orzusi esa eng beg'ubor va eng pok niyatdir.

YAqinda maktabimizda fan olimpiada g'oliblari mukofotlandi. Qo'qon shahar ichki ishlar boshqarmasining boshlig'i podpolkovnik Umarbek Shomurodov g'olib o'quvchilardan 20 nafari, ularning 5 nafar ustozlariga shaxsiy jamg'armasidan pul mukofoti ajratdilar. Maktabning ta'mirlash ishlari va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish ham Umarbek akaning odatiy ishlaridandir. U kishining yordami bilan maktabimizga yangi yer osti yo'lidan o'tib boryapmiz. Men bir narsaga hayron qolaman. Nega ba'zi o'rtoqlarimiz o'zlari o'qib turgan maktablaridan litsey, gimnaziyalarga o'tib ketyaptilar. Men esa o'zimizning maktabda olib borilayotgan namunali ishlar, himmat va sahovatlardan faxrlanaman.

Rasuljon YO'LDOSHEV,
Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumani Al-Farobiy nomli 29-o'rta maktabning 9- «A» sinf o'quvchisi.

She'rni yod oling O'ZBEKISTON

Tumorlar ayladim, tuproq toshingni,
Maysa guling bo'ldi, surma sulaymonim.
Mustaqil hur bo'lgan qutlug' yoshingni,
Qurbon quli bo'lay, O'zbekistonim!

Ulug'bek yulduzin bag'ringa bosib,
Mashrab sirtmog'ini yechgali keldim.
Bir sakrab, Hindiqush tog'idan oshib,
Boburni uyg'otay, O'zbekistonim!

Yo'l boshla, oshaylik dunyo devonlar,
Yuzingga gard qo'nsa artayin jonim.
Navoiy nidosin bilganlar haqqi,
Bolam deb ergashtir, O'zbekistonim!

Yorug' yulduzlarga qo'yib narvoning,
Dunyoga boqarsan asl marjonim.
Omon bo'lsa Yurtboshing - sarboning,
Toleing nur bo'lgay, O'zbekistonim!

Kundan-kun dilimda mehning ziyoda,
Ko'zimning qarog'i o'zingsan jonim.
Seni sevmaganlar yonsin dunyoda,
Olovlarining ichra, O'zbekistonim!

Shamsiddin SADOIY

Yulduz xarugachisi

Ularni turlicha atash mumkin: o'qituvchi, muallim, murabbiy, mudarris, usta, domla, ziyokor...

Maqsadlari esa uyg'un: poklik, ezgulik, sahovat, ziyo urug'larini qalblarga qadash...

«Ustoz otangdan ulug'» degan ibora aytilganda, shu jihatlariga e'tibor berilgan bo'lsa ajab emas. Farzandlarining ota-ona oldidagi qarzlari ado bo'lmaganidek, ular ustozlari qoshida ham qarzdordirlar. Darhaqiqat, ustoz Navoiy aytganlaridek:

*Haq yo'lida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila,
Aylamak ado bo'lmas oning haqin yuz ganj ila.*

Jahon taraqqiyotidan ma'lumki, O'rta Osiyo-ilk madaniyat beshigi bo'lgan. Madrasalar-Beklarbegi, Ko'kaldosh, Hokimoyim, Mehtaroyim, qorixonalar, eski maktab, keyinchalik, 1890 yillarda tuzilgan yangi usul-jadid maktablari-bular bari ma'rifat o'chog'i bo'lgan.

Istiqloлга erishib, turmushimiz yaxshilanib borayotgan pallada ilm maskanlari yangicha nomlar bilan boyib bormoqda. Ular: gimnaziya, kollej, oliygoh va boshqalar. Ular qanday nom bilan atalmasin, umumiy bir zanjirga bog'langan: maktab - maktabdor - tolib.

Bobolarimiz qoldirgan maktab - ma'naviyatlar bulog'i. Ma'naviyatsiz esa kelajak yo'q. Istiqbolimiz dasturi bo'lmish Prezidentimiz I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» kitobida shunday gaplar bor: «Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi». Inshoolloh, bizda insoniy tuyg'ularni tarbiyalash uchun manbalar to'lib-toshib yotibdi.

Andijondagi maktablarning birida devorga quyidagi so'zlar yozib qo'yilgan: «Bolalar tarbiyasini sharq xalqidan, xususan, o'zbek xalqidan o'rganishimiz kerak».

O'qituvchi - jamiyatning katta siymosi. Isbotiga yozuvchi O'tkir Hoshimovning quyidagi fikrlarini keltirmoqchiman: «Murg'ak bolaning oppoq qalb

daftariga insonlik degan so'zni o'yib yozish huquqi faqat o'qituvchiga berilgan».

Yangi yil, yangi asr, yangi ming yillik o'quv yilining uchinchi choragi ham boshlanib ketdi. Bu yilning fayzi o'zgacha. Respublikamizdagi barcha murabbiy-muallimlariga ezgu tilaklarimni yo'llar ekanman, aziz bolajonlar, ustoz qadriga yeting. Ularning bilimi qudratidan qudrat olib, umr yo'llaringizda shuhrat toping, deymen.

Gulnora MUHAMADIYOROVA,
Oliy toifali o'qituvchi.



Tomorqamizdagi poliz ekinlarining qurib, so'lib qolganligini ko'rgan onam, 10-15 yil burun qancha-qancha sabzavotlarni shu tomorqaning o'zida yetishtirar edik, qishga ham g'amlab olar edik. Bozordan olish qayoqda, hamma narsa o'zimizning yerdan chiqar edi. Bu suvning taqchilligidan, ekologik holatning buzilishidan bo'lsa kerak, deb kuyinib gapirdilar. Polizlar o'z vaqtida suv ichmaganligi uchun dehqon ko'nglidagidek hosil ololmaydi.

Ularning aytishlariga qaraganda, avval har bir qishloqda 1-2 ta hovuz bo'lar ekan, undan butun qishloq odamlari suv ichar ekan. Hozir hovuz tugul quduq suvlarini ichmay qo'yishdi. To'g'ri hovuz, ariqlardagi suvlardan ichmaslikning sababi bor. Ekologik holatning buzilishi havoga, suvga, ekinlarga, meva-sabzavotlarga ta'sir qilmay qo'ymaydi. Buxoro suvi sho'r suv bo'lganligi sababli, bizda Samarqand suvi quvurlar orqali keladi. Mana endi har hovlida artizon quduqlari bo'la turib,

Samarqand suvi sotib olinadi. «Ichimlik suvi» deb yozib qo'yilgan traktor-

MENING MUSLIMA SINGLIM

Biz oilamiz kenjasi Muslimani juda yaxshi ko'ramiz. Agar u uxlayotgan bo'lsa, biz zerikib qolamiz. Chunki u o'zining shirindan shakar gaplari bilan bizni kuldirib turadi-da. Hali 3 yoshga to'lmagan bo'lsa ham, televizor orqali berilayotgan ashulalarni xonanda bilan baravariga kuylaydi. Ertalab maktabga ham har doim Muslimaxon uyg'otadi. Biz esa uni „uyg'otgich soatimiz“ deymiz. Maktabdan kelganimizda „jivachka“ deya olmay, „uvachcha“ olib keldingizmi, deb so'raydi. Agar olib kelmagan bo'lsak, „jivachka sotuvchi xolanikiga olib boring“ deydi. Agar uni shokolad yoki biror boshqa shirinlik bilan aldaydigan bo'lsak, darrov «jivachka xola»ni unutadi. Ha, mening singlim shunaqa.

Nargiza NISHONBOYEVA,
Toshkent viloyati, Chinoz tumanidagi
Abu Rayhon Beruniy nomli maktabning
8-sinf o'quvchisi.

KARIM VA SALIM

Karim va Salimlar yon qo'shni, ikkisi ham bir sinfda o'qiydi. Ularni ko'rganlar aka-uka deyishadi. Ikkisi o'rtoq, birga yurib turishsa ham fe'l-atvorlari boshqa. Karim og'ir-vazmin, bosiq, tabiatan chiroyli qora bola. Salim bo'ychan, yengil tabiatli, maqtanchiq, qitmir sariq bola, so'zga usta, ko'p gapiradi. Shuning uchun sinfdoshlari uni, „Salim bulbul“ deyishadi. Karim Salimdan olti oylik katta bo'lsa ham, bo'yi uch enlik past.

Karim kuchuk ko'rsa ham, mushuk ko'rsa ham tegmaydi, dumidan sudrab ozor bermaydi. Hayvonlarga ozor bermaydi. Salimning it-mushuk bolalarini dumidan tortib, qulog'idan cho'zib big'irlatib yotganini ko'rsa, ajratib, urishib beradi. Salim o'z qilig'ini qiziq ko'rib, qachon ko'rsang hix-hix kulib turgani-turgan. Maktabda konsert bo'lsa, qo'shiqni Salim ijro etadi, sinflarda yig'in bo'lsa, so'zni „bulbul“ aytadi. Qo'shni maktabdan bolalar kelsa, unga „bulbul“ni misol qilib ko'rsatishadi. Sinflararo boks, futbol musobaqalari o'tkazilsa - sovrin shuniki.

Karim esa uning aksi. Uning biladigan darsi, bo'sh vaqtdagi hamrohlari: ertak, hikoya, rivoyat, hikmatnoma, odobnoma va topishmoqlar rasman kitoblar.

YAqinda yangi o'quv yilining choragi tugab,

mashinalar kundan-kun ko'payib borayapti. Katta temir bochkalar sanitariya jihatdan tozami, suvchi amaki meditsina ko'rigidan o'tganmi - yo'qmi, buning ahamiyati yo'q. Bolalar o'rtasidagi sariq kasalligi, ichketar kasalligi, boshqa har xil yuqumli kasalliklar tarqalishiga sabab bo'lyapti.

O'rta Osiyoning gavhari bo'lgan Orol dengizi qurib bormoqda. Suv o'rnida qum, tuz

quruqligi g'alla, paxta maydonlariga zarar. Bu holat baliqchilik sanoatiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Suvsizlik qanchalik dahshat ekanligini shu holatni ko'rayotganlar



barxanlari paydo bo'lmoqda. Orol bo'yi hududlarida esa bo'qoq, bolalar va onalar kamqonligi, nogironlarning ko'payishi sodir bo'lmoqda. Ob-havoning

biladi. Yodingizdami, Eron shohi Doro I qo'shinlarini oddiy cho'pon Shiroq cho'lu-biyobonda ochlik, suvsizlikdan qirib yuborgani?

Odamlar bizda ham suv

KELSANG KO'RASAN

Biz 4-sinfda o'qiymiz, ammo ko'pdan beri maktabimizda biror tantana bo'lganini eslay olmaymiz. Hatto uzoqqa bormay bu yil archa bayrami ham bo'lganini bilmadik. Yana sening qulog'ingga aytadigan bundan ham muhim gapimiz bor: maktabimiz ichidagi hojatxonani qulflab qo'yishadi, hovlidagisi esa buzilib yotibdi. Shuning uchun ustozlar uyi yaqinlarnikiga boringlar, deyishadi. Biz esa bir-birimizdan uyalib yuramiz. Hatto bir kuni... Yana maktabimizda diplomi yo'q „o'qituvchi“lar ham „dars“ berishadi. Ularning darsi tahminan mana bunday: -Maktabimizda farrosh yo'q. Shuning uchun xonalarni oson supirib sidiray desangiz, yaxshisi ozodagarchilikka rioya qiling...

Hullas gap ko'p, kelsang ko'rasan.

Salom bilan Chilonzor tumanidagi
270-maktab o'quvchilari.



hamma fanlarga yakun chiqarilganda, sinfdoshlari „bulbul“ning siriga shunda tushunishdi. Endi Karimni hurmat qiladigan bo'lishdi. Nega deysizmi? Chunki, odobli Karim tuman xalq ta'limining faxriy Yorliq sovrindori bo'ldi.

Qidirboy TO'LABOYEV

BILAG'ON BOLALAR DIQQATIGA!

Siz «Tong yulduzi» gazetasi sahifalarida uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga yozib yuboring. Chunki atayin bilag'on va topag'onligingizni sinash maqsadida harflar tushirib qoldiriladi yoki qo'shib qo'yiladi. Tinish belgilari o'z o'rnida ishlatilmaydi... Maqsadimiz: bilimli bo'ling. Chunki osmonni yulduzlar, yerni esa bilimlilar bezar.



xudosiga ishonisharkan. Unga iltijolar qilib, yomg'ir yuborishni so'rarkanlar. Kimning dili pok bo'lsa, niyati mustajo bo'lar ekan. Qani endi men ham o'sha ilmu-duolarni bilsamu, Orolim ustiga yomg'irni yalinib - yolvorib so'rasam. Toki ona O'zbekistonimiz tuprog'ida bitta ham giyoh so'lmasin! Aziz do'stlarim! Har bir tomchi suv qadriga yetaylik. O'zbekistonimiz gullab yashnasin!

Feruza ASHUROVA,
Buxoro viloyati,

G'ijduvon tumanidagi
6-maktabning 9- «B»
sinf o'quvchisi

BIZGA ISHONING

Yurtboshimiz aytganlaridek, O'zbekiston kelajagi yoshlar qo'lida. Bunday buyuk ishonchdan nafaqat mening, balki butun O'zbekiston yoshlarining ko'ngli tog'dek o'sgan bo'lsa, ajab emas. Sarbonimiz katta ishonch va e'tiqod bilan vatanimiz

kelajagini bizga qo'sh-qo'llab topshirdi. Biz buni zo'r mamnuniyat bilan qabul qilamiz. Buning uchun yanada mustahkam bilim olishga, o'zaro jipslashib, yanada ahil yashashga harakat qilamiz. Vatanimizning tinchligi, osoyishtaligi butun dunyo davlatlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishi uchun jonimizni ham ayamaymiz. Nafaqat jismonan, ruhan sog' bo'lishga intilamiz. Ona-vatanimizning gullab-yashnashi uchun qo'limizdan kelgancha harakat qilamiz.

Nigora NAZAROVA, Namangan viloyati,
Namangan tumanidagi,
13-maktabning
8-«B» sinf o'quvchisi.

“DOIM TAYYOR BO'L, O'G'LON!”

Yaqinda shahar qo'shimcha ta'lim Majmuasida „Doim tayyor bo'l, o'g'lon“ tadbiri bo'lib o'tdi. Ushbu tadbir 14 yanvar- Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlanadi. Unda Majmuaning to'garak a'zolari, ya'ni o'g'il bolalar ishtirok etishdi.

Boshlovchi madaniyat ishlari tashkilotchisi Ravshan Rustamov tadbirni ochib, barchani Yangi asr, Yangi yil bilan qutladi va ushbu bayram haqida gapirib o'tdi. Tadbirda Majmuaning to'garaklardan tuzilgan 6 ta guruhi qatnashdi. Bular: „Naqqoshlik“, „Omad“, „Zarb“, „Yog'och o'ymakorlik“, „Yosh jurnalistlar“, „Aktorlar“dir. Ushbu guruhlar uchta shart bo'yicha bellashdilar. Shartlar turli savol-javoblar, ya'ni Vatan himoyachilari kimlar, ular to'g'risida nimalarni bilishlari, qanday tushunishlaridan iborat edi. Keyingi shart sport borasida bo'lib, unda bolalarning jismonan tayyorligi sinab o'tildi. Uchinchi shart esa, qobiliyatlaridan kelib chiqib, erkin mavzuda bo'ldi.

Bu tadbirda 1-o'rinni „Zarb“chilar guruhi, 2-o'rinni „Naqqoshlik“ guruhi, uchinchi o'rinni esa „Yog'och o'ymakorlik“ guruhi to'garak a'zolari egalladilar.

Hay'at a'zolari guruhlarini munosib taqdirladi, hamda ularga o'qishlarida ulkan zafarlar tilab qoladilar.

Farhod HIDOYATOV,
„Yosh jurnalistlar“ to'garagi a'zosi.

Milliy Ensiklopediyamiz muborak!

Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbus va sa'y-harakatlari bilan xalqimiz ma'naviy qadriyatlariga hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo'lish, ularni asrab avaylash va rivojlantirish, muqaddas dinimizni, urf-odatlarimizni, bebaho tarixiy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Madaniy hayotimizda katta voqea - 12 jildli «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»ni yaratishga kirishilganligi ana shu siyosatning yorqin amaliy ifodasidir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1997 yil 20 martda «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyotini tashkil etish to'g'risida» 154-qarorini qabul qilgach, bu katta ishni amalga oshirish uchun barcha shart-

yutuqlari haqidagi bilimlarga muajmuidan iborat bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi haqidagi materiallar ensiklopediya umumiy hajmining asosiy qismini egallaydi. Unda mamlakatimizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyingi davrda ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-siyosiy hayotida yuz berayotgan katta o'zgarishlarni batafsil yoritishga harakat qilinadi. O'zbekistonning eng qadimgi davrlardan hozirgacha bo'lgan tarixi, shuningdek mustamlakachilik zulmiga qarshi, yurt

hokazolar kiritiladi. Shuningdek, O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati, jahondagi rivojlangan mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlari, iqtisodiy va madaniy aloqalari, xorij sarmoyalarining respublikamizga kiritilishi, jahon hamjamiyatida mamlakatimiz nufuzi tobora ortib borayotganligi bilan bog'liq mavzular atroflicha yoritiladi.

Ensiklopediya universal bo'lganligi sababli umumbashariy ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi. Unda jahon mamlakatlariga, xususan tarixi, tabiati va geografik joylashuvi, dini, urf-odatlarini jihatidan bizga yaqin bo'lgan davlatlarning o'tmishi va bugungi hayotini yoritishga keng o'rin

BU QANDAY KITOB EKANKI, UNI OXIRIDAN HAM, O'RTASIDAN HAM O'QIB KETILAVERSA?...

ozodligi va mustaqilligi yo'lida kurashgan xalq qahramonlari, O'zbekistonda davlatchilikni mustahkamlashga hissa qo'shgan fidoiy insonlar hayoti va faoliyati haqida istiqloq g'oyasi va umuminsoniy qadriyatlar asosida keng ma'lumotlar beriladi. Uning sahifalaridan o'lkamiz tabiati, hayvonot va nabotot olami, iqtisodiyoti, fani va texnikasi, adabiyoti va san'ati me'morligi va musiqasi teatr va kinosi, xalq ta'limi va majburiyati, jismoniy tarbiya va sport, urf-odati, an'analari haqidagi dalillarga boy maqolalar o'rin oladi. Har bir fanning hozirgi holati, tarixi va metodologiyasini aks ettiruvchi barcha tushunchalar, terminlar, nomlar va

beriladi. Hamma universal ensiklopediyalarda bo'lgani kabi O'zbekiston milliy ensiklopediyasida ham barcha zamonlar va xalqlarga mansub mashhur shaxslar, kashfiyotlar, sayyohlar, fan, texnika, adabiyot, san'at namoyandalari, taniqli davlat va siyosat arboblari to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Ensiklopediyaning umumiy hajmini 1600 nashriyot-hisob tabog'ini tashkil etib, qariyb 60 ming maqolani o'z ichiga oladi. YAqinda ensiklopediyaning 1-jildi nashrdan chiqdi. Kitobxonlar hukmiga havola qilinayotgan 1-jildida 4800 maqola bor, 800 ga yaqin rangli va oq-qora suratlar, xaritalar berildi.

Mohina ASHUROVA,
O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi
Madaniyat va san'at tahririyatining
mudirasi

- O'zingizga ma'lumki, AKSELS O'zbekistonda 1992 yildan buyon faoliyat olib boradi, deb suhbatni boshladi janob Kurtis. - Shu davr mobaynida tashkilotimizga qiziqqanlar va chet elda tahsil olishni istovchilar borgan sayin ortib bormoqda. Buni minglab anketa topshirayotgan o'quvchilar misolida ko'rishimiz mumkin. Birinchi shartimiz ingliz tilini mukammal bilishdir. Biroq,

o'zbekistonliklarning ingliz tilini yuqori darajada bilishlari meni hayratlantiradi. Chunki ular Amerika maktablarida va oliygohlarida katta yutuqlarga ega bo'lmoqdalar. Chunki turli fan darslarini ingliz tilida o'qiydilar-da.

-Yoshlarimizdan nimalarni talab qilasizlar?

-Yoshlar chet elga borishga tayyor bo'lishlari kerak. Dunyoqarashi yaxshi, fikrlash doirasi kengligi ham ahamiyat kasb etadi. Boshqa madaniyat, o'zgacha hayot, yangicha urf-odatlar bola uchun yangilikdir. Shuning uchun ham yoshlar moslashuvchan va diplomat bo'lsalar, maqsadga muvofiq bo'lardi deb o'ylayman. U o'zini qaysi mamlakatdan kelganini va qayerda yurganini doimo his qilib turishi kerak. U yerdagi tengdoshlarida yaxshi taassurot qoldirish o'ziga bog'liq. O'zbekiston haqida to'liq ma'lumot yetkaza olishi lozim.

-Nechanchi sinf o'quvchilari Amerikaga borishi mumkin?

-Asosan 10-sinf o'quvchilarini jo'natamiz. Chunki bu yoshdagilar pasport olgan bo'ladilar. Amerikaga pasportsiz borib bo'lmaydi-ku.

-O'quvchilarimiz qayerda istiqomat qiladilar?

-O'quvchilar oilalarda, studentlar yotoqxonalarda yashaydilar. Biz bolalarni namunali oilalarga joylashtiramiz. Oilada yashash o'quvchi uchun juda foydali.

АКСЕЛС БИЛАН ХАМКОРЛИКДА

*B u g u n g i
yoshlarimizga mazza.*

Ularga keng

imkoniyatlar yaratilib

berilgan. Iqtidorlilar

tagdirlansalar, a'lochilar

chet ellarda ta'lim olib,

jahondagi tengdoshlari

bilan bilimning barcha

jahhalarida bemalol

bellashmoqdalar.

Yoshlarga keng

yo'llarni ochib

berayotgan mutasaddi

tashkilotlar talaygina.

Ulardan biri Xalqaro Ta'lim Bo'yicha Amerika

Tashkiloti - AKSELSdir. U o'zining bir nechta

dasturlari bilan O'zbekistonda faoliyat olib bormoqda.

Dasturlaridan biri o'quvchilarning Amerikada tahsil

olishlariga qaratilgan. Gazetamiz aynan o'smirlar

gazetasi bo'lgani uchun ham, o'quvchilarimizning

chet eldagi hayotlari bizni qiziqtiradi. Shu sababdan

AKSELS tashkilotining O'zbekistondagi direktori

janob Maykl KURTISni suhbatga tortdik.

*Best wishes and success in 2001. From
the entire ACCELS team.*

AKSELS



Chunki muomala vositasida u ko'p narsalarga erishadi. O'quvchilar bir-birini yaqinroq bilishi uchun ham o'zaro muomalada bo'lishi kerak. O'ziga yangi dunyoni, madaniyatni kashf etadi. Men o'zimdan qiyos qilaman. Mana, O'zbekistonda yashab, sizlarning urf-odatlariningiz,

udumlaringiz, madaniyatingiz va ma'naviyatingiz bilan yaqindan tanishmoqdaman. O'zbek tiliga bo'lgan qiziqishimni ham tilingizni o'rganishga almashdim.

-Hozirda chet ellarda tahsil olish uchun ko'plab pullik tashkilotlar ham mavjud. Siz

bunga nima deysiz?

-To'g'ri, bunday imkoniyatlar ham mavjud. Bugungi kunda istagan davlatingizga o'qishga borishingiz mumkin. Albatta pul to'lab. Tashkilotimizni esa Amerika hukumati moliyaviy tomonidan qo'llab-quvvatlaydi. Shuning uchun ham bizda bepul. Bugungi kunda o'quvchilarni oladigan bo'lsak, ulardan minglab anketalarni olamiz, biroq o'rnlarni chegaralangan. Masalan, bu yili ellik nafar o'quvchilarni jo'natishni mo'ljallayapmiz. Bir o'ringa nechchi nafar o'quvchi to'g'ri kelishini ko'z oldingizga keltirib ko'ring-a. Konkurs katta. G'olib kelganlarigina o'qishga jo'natiladi.

-Viloyatlarda ham bo'limlar mavjudmi?

-Tashkilotimizning Toshkentdagi asosiy ikkita ofisidan tashqari yana Buxoro, Samarqand, Nukus va Namanganda bo'limlar mavjud. Ular u yerdagi iqtidorli va a'lochi o'quvchilarni chetda qolib ketmaslikka, chet elga borishiga ko'mak beradi. Kutubxona va test markazi o'quvchilar bilan doimo gavjum.

-Ta'lim olib qaytganlarda o'zgarish bormi?

-Albatta, ular shunday toza va tiniq so'zlashadilarki, ba'zida ularning amerikaliklardan farqlay olmay qolaman. Dunyoqarashi ham o'zgacha.

-Mushtariylarimizga tilaklaringiz.

-Men „Tong yulduzi“ mushtariylariga nafaqat ingliz tilini, balki boshqa tillarni ham o'rganishlarini tilayman. Agar ingliz tilini mukammal bilsalar, o'zini sinab, biz bilan hamkor bo'lsinlar. Dunyo ko'rsinlar.

-Suhbatingiz uchun tashakkur.


Muharrama PIRMATOVA.



“TIBABONUK MANUKACHU” KEYPUK MANUKACHU

Tabiatning biz uchun yaqin hamda olis bo'lgan o'simlik va hayvonot mamlakatida „Miss tabiat“ go'zallar ko'rik tanlovi o'tkazildi. Nabotot o'lkasining prezidenti janob Ko'chatbek Daraxtovich hayvonot mamlakatining rahbari Arslon O'rmonov janobi oliylari bilan maxsus shartnoma tuzdi. Unga ko'ra har ikki o'lkadan ishtirok etishni xohlovchi qizlar bu tanlovga tashrif buyuradigan, g'oliba esa ikki davlatning ham ko'rki, eng jozibali xonimiga aylanadigan bo'ldi. Tanlovning qatnashchisiga qo'yiladigan shart deyarli yo'q, ya'ni barcha xohlovchi qizlar bu ko'rikda qatnasha oladilar, ularning yoshlari va bo'ylari hisobga olinmaydi. O'rmon - ko'rik o'tadigan joy qilib belgilanadi.

Nabotot mamlakati o'zining Do'lanabonu Majnuntol va boshqa qizlarini tavsiya qildi. Hayvonot o'lkasidan faqatgina



Ilonoy Zaharovna tanlovda qatnashdi. To'g'ri, Tulkixon ham ishtirok etmoqchi edi, lekin ayrim sabablarga ko'ra fikridan qaytib, o'rniga quyoshni qoldirib ketdi. Quyoshning odatini bilasiz-ku, u tanlov o'tkaziladigan kuni „quyon“ bo'ldi.

Shu kuni o'rmonni bezatish ishlari dizayner Bulutjon Yomg'irovga topshirildi. U ham o'z vazifasini zo'r mahorat bilan bajardi: daraxtlarning yaproqlariga mitti chiroqlar o'rnatdi. Ular tanlov ko'rkiga ko'rk qo'shishdi. Qatnashchilardan Karimxon sochini yangicha turmaklab, Majnuntol esa qirq kokil qilib o'rib keldi. Qo'ziqorin kiygan shlyapa o'ziga juda yarashgan edi. Shuningdek, tanlovga Mehriyoyo, Qoradori ham tashrif buyurdi. Na'matak va Sichqon hay'at a'zolari etib saylandilar.

Ko'rik tanlovni loyiha muallifi janob Bo'ri ochdi. U o'z nutqida qatnashchilarga omad tiladi, hay'at a'zolaridan esa adolatli bo'lishni iltimos qildi.

Tanlov boshlandi. Birinchi bo'lib, sahnaga Do'lanabonu chiqib keldi.

- Tog'ning olmasi menman,
Ishdan qolmasi menman.
Mevam shirin, lek biroz,
Boshni og'ritadi va
Me'daga zarar, xolos.

Majnuntol sahnaga chiqqanida uning sunbul sochini ko'rgan tomoshabinlarning boshlaridan hushlari uchdi. U dedi:

- Men - soch mutaxassisi
Buyoqqa kon po'stlog'im.
Unda sochini bo'yar,
Ko'p dugona, o'rtog'im.
Po'stlog'imni qaynatib,
Yuving boshning qasmog'in.
Undan keyingi qatnashchi
bo'lgan Mehriyoyo quyidagi
so'zlarni aytdi:

- Meni ta'rif qilishar
Deya: „Mehning koni“.
Lekin men borgan uydin
Yo'qolar tinchlik nomi.
Tutqazgan sharobimni,
Ichsangiz orom berar.
Lek o'tmaslashar undan,
Sizdagi ko'p sezgilar.

To'rtinchi qatnashchi bo'lgan Karimxon o'zini quyidagicha ta'rifladi:

- Mening yordamim tegar,
Qasmoqni yo'qotishga.
Qarashaman bo'g'ilgan,
Ovozingiz sozlashga.
Faqat bir „lekin“i bor:
Men sababchi bo'laman,
Ko'z xiralanishiga.

Keyin esa Ilonsoy sahnaga sudralib chiqdi:

- Mashg'ulotim: kasallarni tuzatish,

Kishilarni bitlatish,
Iloji bo'lsa, chaqish.
Qoradori sahnada o'zi haqida
quyidagilarni ma'lum qildi.

- Asli vatanim - Misr,
Uyquning elchisiman.
To'xtatgum bosh og'riqni,
Lek zehn buzguvchiman.
Issiq so'ndirguvchiman,
Shuning oqibatida
Albat o'ldirguvchiman.
Sahnaga so'nggi qatnashchi
bo'lgan Qo'ziqorin chiqdi:

- Ismimdir Qo'ziqorin,
Deyarli yo'qdir dorim.
Falaj qilish xavfim bor,

Me'da uchun men zarar.
Keyin navbat hakamlarga berildi.
Ular qatnashchilarga qo'yilgan baholarni e'lon qildilar.

- Do'lanabonuga 5 ball.
Karamxon va Qoradoriga 7 ball.
Mehriyoyoga 8. Ilonoyga 6 bal
qo'yildi.

Eng yuqori bal Majnuntolga berildi, ya'ni 15 ball.


-Buni e'lon qilishlari bilan tomoshabinlar qarsak chalib, Majnuntolni olqishladilar.

Majnuntol esa ularga ta'zim qildi. Shunday qilib, u „Miss tabiat“ unvoniga sazovor bo'ldi. Ikki mamlakat prezidentlari Majnuntolni bu unvon bilan tabriklab, u bilan faxrlanishlarini aytdilar.

Majnuntolga so'z berilganida, u hayajonlanib, faqat ushbu so'zlarnigina ayta oldi.

-Sizlarga katta rahmat, bu hurmatlaringiz evaziga sizga hamisha ta'zim qilib qolaman, azizlar.

*Munira ROZIQOVA,
Alisher Navoiy nomli
Respublika Nafis san'at
litseyi o'quvchisi.*



QALDIRG'OCH

To'g'ri, hozir qaldirg'ochni uchratadigan payt emas. Qahraton qish. Lekin bahor tezroq kelishini, ko'klamning ilk darakchisini yana qayta ko'rishni istamayotganlar, menimcha oramizda yo'q bo'lsa kerak.

Albatta, hammamiz bolaligimizda „Qaldirg'ochning inini buzma“, „Qaldirg'ochga ozor yetkazma“, „Qaldirg'ochning qarg'ishiga qolma“ degan gaplarni ko'p eshitganmiz. Qaldirg'och in qurgan xonadon fayzli, tinch-totuv bo'ladi, Qaldirg'och oilaga baxt-saodat keltiradi, deyiladi.

Xo'sh, nega Qaldirg'ochni bunchalik e'zozlaymiz? Bunga „Qissasi Rabg'uziy“da keltirilgan „Ilon va qaldirg'och“ hikoyatidan qisman javob topganday bo'lamiz. „Qadim zamonlarda dunyoni suv bosib qolgan paytda Nuh payg'ambar kema yasab, kemaga barcha hayvonlardan jufti bilan olgan ekanlar. Kunlardan bir kuni kemani Sichqon teshib qo'yibdi. Shunda ilon suv kirayotgan kemaning teshigiga halqa bo'lib yotib, halokatni bartaraf etibdi. Biroq evaziga dunyodagi eng shirin go'shtni so'ragan ekan va Nuh payg'ambar shu

shartni bajarishga va'da bergan ekanlar. Eng totli go'shtni bilib kelishga yuborilgan ari, eng shirin go'sht odamniki, deb qaytayotganida qaldirg'och insoniyatni bu balodan xalos etib, arining tilini uzib olgan ekan. Gung bo'lib qolgan ari totli go'sht odamniki deb hech ham ayta olmas, faqat qaldirg'ochga qarab-qarab qo'yarkan. Shunda qaldirg'och cho'lda ari unga uchragani va baqaning go'shti eng shirin deganini aytdi. Shundan so'ng, Nuh Alayhissalom ilonga baqani buyuribdilar.

O'sha zamondan beri ilon baqa yer ekan. Lekin ilon anchadan keyin qaldirg'ochning odam farzandiga yaxshilik qilganini bilibdi. Shundan beri qaldirg'ochga dushman bo'libdi. Shu sababdan qaldirg'och odam farzandi bilan bir uyda der ekanlar“.

Biroq Qaldirg'ochni bunchalik e'zozlashimizga boshqa bir sabablar ham bor. Bu bizning tariximizga borib taqaladi. Aslida, Qaldirg'och turkiy xalqlarning totemi bo'lgan. Totem bu - asrlar davomida avlod-dan-avlodga o'tib kelgan: hayvonlar, qushlar, parrandalarning topinish darajasida muqaddas hisoblash. Shuning uchun Qaldirg'ochga e'tibor bizga begona emas.

O'zbek dostonchiligining buyuk namunasi „Alpomish“da Hakimbekning singlisini nomi ham - Qaldirg'och.

Qaldirg'ochni vafo, sadoqat ramzi ham deyishadi. Chunki Qaldirg'och bir marta qurgan iniga keyingi yillarda ham kelib yashayveradi. Agar biror falokat yuz bermasa va inini buzib tashlamasangiz, Qaldirg'och xonadoningizni tark etmaydi. Balki shuning uchun ham Qaldirg'ochni sevsak kerak.

Agar bahorda qaldirg'ochlar pastlab uchishsa, bilingki, yomg'ir yog'adi.

Shu hodisaning o'zini ham, odamlarni yog'ingarchilikdan ogoh etishga bo'lgan harakatga yo'yish mumkin.

Umuman, Qaldirg'och insonga boshqa qushlardan ko'ra yaqinroq. Balki qaldirg'ochning ana shunday xislatlari uchun turkiy ajdodlarimiz uni muqaddas hisoblashgandir. Nima bo'lganda ham u bahorning eng go'zal, vafodor qushi!

Qaldirg'ochim, tezroq kelaqol.

*Dilnoza Yunusova,
O'zMU 2-kurs talabasi.*



Maktabga, to'g'rirog'i 1- «A» sinfiga o'zga sayyoralik kelarmish. Bu mish-mish maktab bo'yicha tarqaldi.

Tez orada g'alati tovushlar bilan bir bolakay kirib keldi. Voy, mish-mish to'g'riga o'xshab qoldi-ku. Ayrim o'quvchilar qo'rqsa, ayrimlari yaqindan ko'rishga, suhbatlashishga

o'quvchilar ikki guruhga bo'lindilar. Birinchi guruh „Chaqqonlar“, ikkinchisi „Epchillar“ deb nomlandi. Hay'at a'zolari etib, shu sinfnig bilimdonlaridan Ibrohimjon, Doniyorjon hamda Umidjonlar saylandi. Ular sinfdoshlari- ikki guruh a'zolarining harakatlarini kuzatdilar va o'zlari

Topishmoqlar aytishdi, topqirlik o'yinlarini uyushtirishdi. So'z xay'at a'zolariga berilganda, ular ikki guruhning ham epchil, ham chaqqon ekanliklarini ta'kidladilar. Bayram musobaqasini kuzatgan o'zga sayyoralik yana tilga kirdi:

- Siz o'z Va-ta-nin-giz bi-lan faxr-lan-san-giz ar-zir-kan.

J a n n a t m a k o n
yurtning bolalari ham
o'ta bilimdon ekan.
Vatanning qadriga
yeting, unga
munosib o'g'il-qizlar
bo'lishga harakat
qiling. Men sizlar
haqingizda o'z
do'stlaringa gapirib
beraman,- deb
o'quvchilar bilan



БИЗ ЧАКҚОНМИЗ, ҲАМ ЭПЧИЛ...

oshiqishardi. O'zga sayyoralik tilga kirdi.

- Men-dan qo'rq-mang-lar, men o'z-ga sayyo-ra-dan kel-dim. Koinotimizga yoqimli ohanglar taraldi. Emishki 1-«A» musiqa sinfi juda bilimdon, chaqqon va epchil ham ekanlar. O'z ko'zim bilan ko'rgani, zukkoligingizni sinagani keldim.

- Xush kelibsiz, mehmon. Davramizga qo'shiling. Bugun bizning sinfimizda „Savodxonlik bayrami“. Bu bayramimizni „Kim epchilu kim chaqqon“ musobaqasi bilan boshlaymiz,- dedi ziyrakkina Dilobar.

O'zbekiston Madhiyasi bilan boshlangan musobaqada

ham ishtirok etdilar.

Bir-birlariga savollar berdilar. Jumladan, Vatan haqida so'ralganda o'quvchilardan biri shunday deb javob berdi:

- Bizning Vatanimiz - O'zbekiston. 1991 yil yurtimiz mustaqil bo'ldi. Uning Prezidenti I.A.Karimovdir. 2000 yil „Sog'lom avlod yili“ edi. Kelayotgan yangi asrimizning ilk yili yana biz bolalarga bag'ishlandi. „Onalar va bolalar yili“ bo'ldi.

Shundan so'ng, o'quvchilarning savodxon bo'lganliklari bilan tabriklagani Uvaysiy, Zebuniso, Nodiralalar kirib kelishdi. Shoiralar timsolidagi 1- sinf qizlari ularning g'azallaridan o'qishdi.

xayrlashdi.

Kimlardir o'zga sayyoralik kelganiga ishonadi, kimlardir „Iya, bu o'zimizning Bobir-ku“, deb uni darrov tanidi. Kim bo'lishidan qat'iy nazar poytaxtimizning Hamza tumanida joylashgan 206- maktab o'quvchilarining bayrami barchaga ma'qul tushdi.

Bu haqda maktab rahbari- Saida opa, o'qituvchilar hamda ota-onalar ham aytib o'tishdi. Ushbu bayram-musobaqaning ana shunday jonli, qiziqarli chiqishida 1-«A» sinfining mehribon ustози Mavjuda opa R a h i m b e k o v a n i n g mehnatsevarliklari, talabchanu bolajonliklari alohida tilga olindi.

Feruza ODILOVA.



МАРКАЗИЙ АМЕРИКАДА ЗИЛЗИЛА

Утган якшанба-14 январ куни Марказий Америкадаги бир қанча давлатларда кучли зилзилалар булиб утди. Зилзиланинг асосий маркази Салвадор давлатига тугри келди. Бу ерда ва баъзи қушни давлатларнинг худудида зилзиланинг кучи рихтер шкаласи буйича 7 ярим баллни ташкил этди.

Ҳозирга қадар олинган маълумотларга кўра, Марказий Америкада содир булган зилзила натижасида 273 киши қурбон булди. 100 минглаб одамлар бошпанасиз қолдилар. Уларнинг купчилигини Салвадор фуқаролари ташкил этади. Ер қимирлаши оқибатида қурилган зарар ҳозирча 300 миллион АҚШ долларини ташкил этмоқда.

ЧЕЧЕНИСТОНДА ЯНА...

Охирги бир ҳафта ичида Чеченистон худудида Россия ҳарбийлари ва чечен жангарилари уртасида қонли туқнашувлар булиб утди. Аникроғи, чечен жангарилари рус ҳарбийлари қуриқлаётган блокпостларга 21 маротаба ҳужум уюштирганлар. Туқнашувларда автомат, гранатамёт ва пулемётлардан тинимсиз уқ узилган. Булиб утган жанг натижасида битта рус ҳарбийси ҳалок булди, 15 таси оғир тан жароҳатини олди. Чечен жангарилари орасида ҳам қурбон булганлар ва ярадорлар бор.

ГИЁҲВАНД КЕМА

Жанубий Америкадан Испаниянинг Барселона шаҳрига йул олган, ичидаги контейнерларга куп микдорда гиёҳванд моддаси ортилган юк кемаси Испания полицияси томонидан тухтатилиб, қулга олинди.

Кема ичидаги жиноятчи деб гумон қилинганлардан 22 таси ҳибса олинди. Жиноятчиларнинг купчилиги Колумбия, Эквадор, Боливия фуқароларидир.

Қулга олинган гиёҳванд моддаларнинг оғирлиги 1 тоннани ташкил этади.

ГЕРМАНИЯДА АҲОЛИ РУЙҲАТИ

Яқин кунларда Германияда аҳолини руйхатга олиш мулжалланмоқда. Бу ерда охирги марта аҳолини руйхатга олиш 1987 йилда булиб утган.

Германиядаги бу соҳа буйича мутасадди ташкилотларнинг хабар беришича, бу галги аҳолини руйхатга олиш жараёни аввалгисидан бутунлай фарқ қилади. Яъни, аҳоли руйхати замонавий лойиҳалар асосида олинади.

Шоҳруҳбек КАРИМБЕКОВ
тайёрлади.

НАЗОРАТИНГИЗ ҚО'ЗОЛМАСИН

Болаларда қуз аъзосининг шикастлари умумий қуз касалликларининг 15 фоизини ташкил қилади. Шулардан 40-45 фоизи оғир шикастлар ҳисобланади, асоратлари қайтмас булиши мумкин. Шикастланган болаларнинг 30-60 фоизи бир ёки икки томонлама қур булиб қолмоқдалар. Шикастланган болаларнинг учдан бир қисмида қуз аъзосида шундай узгаришлар бўлаяпти-ки, уларнинг қуриш қобилияти 10 фоиздан ошмаяпти.

Қуз шикастлари турли бўюмлар билан етказилапти: пичок, санчки, ёғочлар, сим булаклари, шунингдек, Хитойда ишлаб чиқилган турли хил ўқли тушпонча (пистолетлар), айниқса ҳаммаи ташвишга солаётган Хитойда ностандарт равишда ишлаб чиқарилаётган ва Республикамизга ноқонуний равишда олиб келинаётган пиротехника воситалари (кучли товуш ва олов чиқарувчи маҳсулотлар). Шаҳар клиник болалар қуз касалликлари бўлим мудир Даламуҳамедова Шоҳида опанинг берган маълумотларига қараганда, шу йилнинг утган даврида шифохонада қуз аъзолари шикастланган 57 нафар бола даволанган, ушбу даволанган болаларнинг 4 нафари бир томонлама қур булиб қолганлар. Бир нечта мисолларни келтирмоқчиман:

1993 йилда туғилган Максим Степанцев Хитойда ишлаб чиқилган ўқ билан отиладиган милтиқдан унғ қузи оғир шикастланган.

1992 йилда туғилган Нугмонов Элмурод портловчи пиротехника воситаси қулида портлаб кетиб, иккала қузи қуйиш тан жароҳати олган.

1988 йилда туғилган Ғуломов Абдусаттор ҳам портловчи протехника воситаси қулида портлаб кетиб шикастланган.

Қуз шикастланишлари купроқ мактаб ёшидаги болалар орасида учрамоқда. Купинча болалар мактаб, сунг ота-оналари томонидан назоратсиз қолмоқдалар. Содир булган шикастларнинг купчилиги уй шаронтида булмоқда.

Ёнгиндан сақлаш бошқармаси томонидан бозорларда ва бошқа одамлар куп тушланадиган жойларда пиротехника воситаларининг сотилишининг олдини олиш борасида бир қанча режа ва тадбирлар ишлаб чиқилган булиб, рейдлар утказилмоқда. Бу утказилаётган тадбирлар уз самарасини бермоқда. Болаларни айбдор деб булмайди, ҳар бир содир булган нохушликларга биз катталар ҳам сабабчимиз. Болаларга берилган пулни нимага ишлатганларини ва нималар харид қилганликларини назоратга олиш керак. Уларнинг кунглига қараб турли хил ўқ отувчи милтиқ ва пистолетлар, пиротехника воситалари сотиб олиб берманг. Боланинг қули

стадиган жойларда кимёвий моддалар бензин, гугуртларни сақламанг. Болаларни уйда ёлғиз назоратсиз қолдирманг. Электр ва газ асбобларини ёқиш ва ишлатишни таъқиқланг. Келаётган янги йилни нохушликларсиз ва ёнгинсиз кутиб олиш уз қулимизда. Ёнгиндан сақлаш бошқармаси ички хизмат катта лейтенанти

Утган йил давомида Тошкент шаҳрида 2008 та ёнгин содир булди. Ушбу ёнгинларда бир неча киши ҳалок булиб, 54 киши турли даражадаги қуйиш тан жароҳати олганлар.

Ҳ а р бир содир булган ёнгин уз-узидан эмас, балки инсонларнинг айби билан вужудга келди.

Байрам кунлари Мирзо Улугбек тумани Қорасу 3 даҳаси, 11 уйда ёнгин содир булиб, оқибатда 40 квадрат метр майдонда томорқа орқасида девор ёнган. Ёнгинни келиб чиқишига сабаб: болаларнинг олов билан уйнаши.

3 январ куни Яккасарой тумани, Б.Бабаева кучаси, 132 уйда ёнгин содир булиб, ёнгин оқибатида 10 квадрат метр майдонда уй жиҳозлари ёнган. Ёнгиннинг келиб чиқишига сабаб - ёқилган электр жиҳози ёқиб қолдирилган.

7 январ куни Собир Раҳимов тумани, Тансиқбоева кучаси, 4 уй, 36 хонадонда ёнгин содир булиб, ёнгин оқибатида 7 квадрат метр майдонда уй жиҳозлари ёнган. Ёнгиннинг келиб чиқишига сабаб: „Фотон“ телевизоридаги электр симларининг қисқа туташуви.

13 январ куни МирзоУлугбек тумани, Тошкент оқшоми кучаси, 49-уйда ёнгин содир булиб, ёнгин оқибатида 25 квадрат метр майдонда ҳаммомнинг ёғоч шип қопламаси ёнган, ёнгиннинг келиб чиқишига сабаб: иситиш печи мурисининг носозлиги.

14 январ куни Сирғали тумани, Сирғали 8 «А», 25 уй, 15 хонадонда ёнгин содир булиб, ёнгин оқибатида 8 квадрат метр майдонда балконнинг дераза роми ва уй жиҳозлари ёнган. Ёнгиннинг келиб чиқишига сабаб: болаларининг олов билан уйнаши.

Бу ёнгинларнинг сабаблари уй-жойларда электр ва газ асбобларидан фойдаланганда ёнгин хавфсизлик қоидаларига риоя қилмаслик, электр асбоблари ва печларни ёқиқ назоратсиз қолдиришдир. Ёнгин хавфсизлик қоидаларига риоя қилган барча фуқаронинг „ут балосидан“ холис булишларига ишончимиз қомил.

Феруза САБДУЛЛАЕВА.

Ёнгиндан сақлаш бошқармаси назоратчиси,
ички хизмат катта лейтенанти.



Маънавият тарбиянинг энг таъсирчан кўроли экан, ундан оқилона фойдаланиш, болаларимизни ватарпарварлик, ростгўйлик, ҳақсеварликка ўргатиш керак бўлади. Аслини олганда, ахлоқ - маънавиятнинг ўзаги. Инсон ахлоқи шунчаки салом-алик, ҳушмуомалаликдангина иборат эмас. Ахлоқ - бу энг аввало, инсон ва адолат тўғриси, иймон ҳалоллик дегани.
Ислом КАРИМОВ.

ҚИШЛОҚ МАЪНАВИЯТИ

Қишлоқ. Қадрдон, она қишлоқ! Сенинг далага булган садоқатинг ватарпарварлик эмасми? Сенда тарбия топганлар азал-азалдан сенинг камолнинг, ҳусни жамолнинг учун тер тўкиб келганлар. Ахлоқан одми одамларинг элу юрт дастурхонини безаб, неча асрлардирким, инсоф ва адолат билан иш юритадилар. Улар меҳнати туфайли белимиз бақувват, кўксимиз тоғ булган.

Сенга туташ яйловлар жонимга туташ, қовун-тарвузларнинг ўткир нигоҳ билан қаралгудек бўлса, “тарс” ёрилгудек. Сен улар бағрига ҳимматингни, халқингга булган ҳурматингни яширгансан чоғи... Зилол булоқларингдан тишларим қамашиб, сув ичганим бор, ҳовлиқма сойларингдан чўмилганим бор. Оппоқ табассумлари билан кўнглимни ёритган чексиз пахтазорларингга қиёс топиб бўлурми?

Эҳ, жонажон қишлоқ... Сен оналар каби соддадил ва меҳрибонсан. Беғам ўғил сингари шаҳар сенга ажабланиб боқади: “Бунча ҳам фидойи бўлмаса...” Сен эса барибир, шаҳардан борингни аямайсан - ноз-неъматларингни, бугдой нон меҳрингни улашаверасан, улашаверасан...

Шаҳар ҳам тушунади, сенсиз яшолмаслигини. Мен ҳам тушунаман. Сенга талпинаман, эй, ота-боболарим киндик қони тўкилган муаззам маскан! Чунки сенда иймон ва ҳалоллик завоҳир курмагай. Ёлгон-яшиқ гаплар сенда илдиз отолмас, ростгўйлик ва халқсеварлик қон-қонингга сингиб кетган. Мен сени шундоқ туришинг билан ҳам севаман ва интиламан! Бугун ҳам сен томон талпиндим. Пахтазорларингдан ўтгим келди, ёши улугларни зиёрат этгим келди, қадоқли қўлларни қўлимда тутгим келди: “омонмисиз, азизларим?” дегим келди...

ЧАПАНИ МАНЗАРАЛАР

Ўшбу қишлоққа Ноймас, Машит, миришкор қишлоқлари оралаб, фикрларимни саралаб етиб бордим. Пою пиёда. Қишлоқнинг чапани манзараларини соғинганман-да. Уларга бир “тўғим” келди, ҳурматини жойига қўйгим келди.

Сураб-суриштириб Маккаи Мадинани излаб топишган экан. Менинг саждагоҳим эса - сенсан эй, ҚИШЛОҚ!

ВАТАН тимсолини мен қишлоқда теранроқ туяман. Бу гушада меҳр-оқибат гуллайди, сархил мевалар тугади...

Кичик Кенагасга кириб борганимда охорли кўйлак кийган, кўринишидан вазмин кишига кўзим тушди. Ўқитувчи бўлсалар керак, деб ўйладим. Адашмабман. Яқинлашиб саломлашганим - мен қидириб келган мактабнинг чет тили фани ўқитувчиси Соатжон ака Қўшмоқов эканлар.

- Келиб кўп яхши иш қилибсиз-да, - дедилар у киши очиқлик билан, мактабимизда газетангизга ёзса арзигулик ишлар қилинапти.

Шу зайлда гурунглашиб, мактаб ҳовлисига кириб бордик.

- Мактабимиз 1993 йили қурилган. Аввалги биномизда ҳозир “Табассум” болалар боғчаси жойлашган, - дейдилар Соатжон ака.

Мактаб ҳовлисига разм соламан: бир томон кета-кетгунча гулзор, бинонинг рубарусига тераклар қатор қилиб экиб қўйилган. Уларнинг охирида сунъий сув чиқариш мосламаси ишлаб турибди. Бинонинг биқини - ёнғоқзор... Ҳавас қилгулик қишлоқча манзара. Уддабуронлик сезилиб турибди уларда.

ҚИШЛОҚ БОЛАЛАРИ, МЕҲР БОЛАРИЛАРИ

Эҳ, қишлоқ болалари барибир бошқача-да! Соддадиллик билан қизиқсиниб қарашади: “Ким экан?” Қора-қура офтобда тобланган бегубор чехралар... Ҳа, қишлоқ болаларини соғинганман. Шундай дейману... шаҳар болалари улардан камми? Ҳеч ҳам-да! Фақат булар ўзига хос: соддадил ва заҳматкаш, тиришқоқ ва одобли. Меҳр-оқибатни соғинсам қишлоққа боргим келаверади. Болалари билан чақчоқлашгим, қўмғонда қайнаган чойидан ичгим келади. Меҳр қўмғони-

дан. Болалар эса уша кук чой каби қайноқ-қайноқ юрак сузларини ҳаётадилар. Улар кўнглига меҳр ташийдилар...

Мактаб биносининг директор хонаси томон юрамиз. Зиналардан мен эмас, кўнглим кутарилди: “Маънавият гулгунчалари, қандай билим олаёйсиз?”. Қора кўзлар чақнайди: “Пухта билим олаёймиз. Илм олиш ҳам - ҳунар”. Бунини салом бериш билан, аёло ўқиш билан ифодалядилар. Э, баракалло, шунқорлар... Илми юз йил яшар, ҳунарли минг йил!

МАКТАБГА МУХБИР КЕПТИ

Мактаб раҳбари Холжўра Жалилов туман Халқ таъли-

ми бўлимида ўтказиладиган мажлисга кетган эканлар.

“Фидокорлар” гуруҳи у киши йўқлигини сездиришмади! Мактаб ҳаётини ил-игнасиғача биладиганлар ҳам шулар-да. “Мактабга мухбир келибди!”, деган овозани эшитишлари биланоқ учрашувга шошилишибди. Жасурбек Паттаев сардорлигидаги бу гуруҳ аъзолари ким экан, таништирайми? Мана - уша гуруҳ аъзолари: 8 - “А” синф ўқувчиси Гузалхон Рузиева, 7-“Б” синф ўқувчиси Мухтасар Темирова, 9 “А” синф ўқувчилари - Саъдулла Қурбонов, Юсуфжон Асқаров, 9 “Б” синф ўқувчиси Эминжон Каримовлар... Улар йўл-йўриқ, мактабда жонбозлик кўрсатиб келаётган ёшлар етакчиси Нафисахон Мирзаева билан бирга кириб келишди. Қадрдон дўстлардек суҳбатлашдик.

“ФИДОКОРЛАР” ФИДОЙИСИ

Эминжон Каримов: - Келажакда жарроҳ бўлмоқчиман.

- “Фидокорлар” гуруҳини тузиш фикри кимдан чиқди? - дейман Эминжонга.

- Ҳаммамиздан...

Шоирахон опа қулиб юбордилар. Болалар ҳам қушилишди.

- Ташаббускори ҳам, етакчиси ҳам ўзи! Шу гуруҳ туфайли мактабимизда тадбирлар кўпай-

ИСТЕЪДОД - МЕҲНАТ ДЕМАК

- Ўтириб, ўйлайвераман, ўйлайвераман, лекин барибир масалани еча олмайман, - дейди Анвар ҳар гал дарс тайёрлаётганда. - Математикага қобилиятим йўқ кўринади. Мана, дўстим Аҳмад учун энг қийин масала ҳам ҳеч гапмас. Худди ёнғоқни чаққандай бир зумда ҳал қилади-қўяди. Унга мазза, қобилиятли бола-да...

Болалар, балки сизлар ҳам ўз муваффақиятсизликларингизни, қобилиятингиз йўқлигинга йўйиб юрарсиз? Менимча ундай эмас. Барча дасрликлар ва масалалар тўплами шундай тузилганки, агар ҳар бир ўқувчи астойдил ўқиса, дасрларни қолдирмаса, барча вазифаларни бажариб берса, ми-сол ва масалаларни еча олади.

Демак, кимки Анвар сингари дарс тайёрлашида қийналаётган бўлса, демак у ёмон ўқиган, ўқитувчини яхши тингламаган, дарс вақтида бошқа нарса билан машғул бўлган. Энди унинг “жабрини” тортаяпти.

Аҳмад эса ҳамма вазифаларни бажариб борган, бирортасини ҳам қолдирмаган.

Қобилият инсонга табиат инъомидир. Баъзиларга кўпроқ, бошқаларга камроқ насиб этиши мумкин. Айримлар ўзида ҳеч қандай қобилият йўқ, деб ҳисоблаб келади. Ва тасодифан бир кунни ўзида ҳам ажойиб ҳислатлар борлигини пайқайди. Масалан, унда ижрочилик фазилати намён бўлиши мумкин ёки расм чизишга, шеър ёзишга қобилияти борлигини сезади. Лекин, фақат иқтидор билангина бирор нарсага эришиш қийин. Меҳнат ва билим билан қобилиятни ривожлантира бориш лозим.

“Истеъдод - бу улкан меҳнат” деб бежиз айтилмаган-ку, ахир.

*Ҳурида НАЗАРОВА,
Ўзбекистон Миллий Университети
журналистика факультетининг
1-курс талабаси.*

XXI аср ворислари

ди. Металлолом, қоғоз йиғиш ишида шулар жонбозлик қилишмоқда. Шанбаликлари-ку, қўяверасиз!

- Камтарлик ҳам эви билан-да, - дедим Эминжонга. Шунча ишлар қилибсизлару...

- Булар бизнинг бурчимиздан келиб чиқадиган одадий юмушлар, - дейди Эминжон босиқлик билан.

УСТА ШАХМАТЧИ

Мухтасар Темирова: мен ёз таътилида 5-6-синфларда ўтилган математика сабоқларини такрорладим. Устозим Солияхон Пулатовадан бир қадам ҳам нари силжиганим йўқ.

- Бу қизимиз Шоира-

уста шахматчи! - деди хон опа. - Бу йил туманимиз бўйича чемпион бўлди. Опоқиси Исмоилхўжа акага тортган-

да!..

- Ёз ичи фақат такрорлашу шахмат билан банд бўлмагандирсиз? - дейман Мухтасарга.

- Ҳовлимизда 4 оила яшайди, - дейди суҳбатдошим.

- Умумий ҳисобда 20 сотих еримиз бор. Опоқим билан картошка, пиёз, помидор, сабзи етиштирамиз.

Хонадонимиздаги болалар ичида энг каттаси ўзимман.

- Унда математика сабоқларига қандай улгурдингиз?

- Кечкурунлари телевизорни кам кураман. Асосий вақтимни билимимни мустаҳкамлашга сарфлайман.

- Баракалла! Жуда тўғри йўл тутар экансиз! - дейман меҳрим товланиб.

НАҚҚОШ БОЛА

Навбат Ёқубжонга келди.

- Сиз нимага қизиқасиз? - дейман унга.

- Мен наққошликка қизиқаман, - дейди Ёқубжон. - Ҳалимжон акам шоғирдлари билан уй деворлари ва шифтларига безак берадилар. Тошкентда ишлаб бир халта пул билан келдилар. Кўриб шунақа ҳавасим келди-ки... У кишидан ҳунар сирларини урганаёйман.

- Ўқиш-чи, ўқиш?

- Асосий орзуим - ҳуқуқшунос бўлиш. Лекин оиламиз катта-да. Урганган ҳунарим талабалик пайтимда қўл келади.

- Пухта режа тузибсиз, - дейман тулқинланиб.

ДИРЕКТОР ЕТИБ КЕЛДИ

Шунқор болалар билан чақчақлашиб, кун охирида қолганини ҳам пайқамабман-а! Дилкаш суҳбат яхши-да, нима дедингиз?

Болалар эндигина чиқиб кетишган эди ҳамки, мактаб раҳбари Холжўра ака Жалилов кириб келдилар. Сурашдик.

- Холжўра ака, мактабингизнинг ташқи дунёси ҳам, ички дунёси ҳам гузал экан! - дейман ҳаяжонда.

- Шунақа денг? Сизга ёққан бўлса, хурсандман.

Холжўра ака- талабчан ва меҳрибон раҳбар эканлар. Шу йил ичи мактаб эшикларини миллий нақшда-гилари билан алмаштирибдилар. Аввалгилари арра тўпон билан ясалган мурт эшиклар эди-да, дедилар у киши қўлимсираб. Кейин Холжўра ака билан боғча ва мактаб учун сунъий усул билан чиқарилган ичимлик суви қувури ҳақида суҳбатлашдик.

- Болаларимиз сув ичгани йўлнинг у юзига утиб кетар, натижада транспортлар ҳаракати-га ҳалақит берар эдилар. Танаффус пайтида жон ҳовучлаб утирар эдик, бирор кор-ҳол юз бермасин деб. Ширкат ҳужалиги раиси ёрдамида ерни бургулатиб, сувни юзага чиқардик, қаранг-ки, сув ўз босими билан тепага отилиб чиқди! Бу ҳам болаларнинг ризқи-да!

- “Деворий доскалар” тарихи билан ҳам таништирсангиз, - дейман қувлик билан.

- Бундан ҳам хабарингиз борми? Оббо, укагинам-эй. Шу десангиз сиз кўриб турган мактаб қурилиши маблаг етишмаслиги туфайли тўхтаб қолган эди. Кимдир, ўқувчиларимиздан бири, деворга “Мактаб қачон битади?” деб ёзиб кетибди. Ҳақли талаб. Мен ҳам “Дарҳақиқат” деб ёзиб қўйдим. Шунда синф деворининг узига рейка қоқиб, тўртбурчак уртасини сирлаб, доска қилиш фикри тугилди. Шу тариқа ҳамма синфхоналарида қўлбола ёзув тахталари пайдо бўлди.

Холжўра ака билан озгина-ю созгина суҳбатлашдик. Кичик Кенагаснинг катта умидларига омад тилаб, хайрлашдик.

Собир ЖАББОР

O'ZBEKISTONNING MANZARASI

O'zbekistonning manzarasi juda xilma-xil va maftunkordir. Past va baland tog' tizmalari bepoyon, ochiq vodiylarga tutashib ketadi. Tekisliklar asosan respublikaning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, uning jami maydonining 70 foizidan ko'prog'ini egallaydi. Qolgan maydonni asosan sharq va janubi-sharqda Tyan-Shanning g'arbiy tarmoqlari, Hisor va Oloy tog'lari tizmalari o'z ichiga oladigan tog'lar hamda tog' yonbag'irlari egallaydi.

Respublikada keng Farg'ona vodiysi alohida ajralib turadi. Bu vodiya quyi joylashgan yirik tog'lararo havza bo'lib, uzunligi 370 kilometr, o'rtacha kengligi 80-100 km. Eng keng joyi sharqiy qismida bo'lib, 190 kilometrga yetadi. Keng vodiyni shimoldan Chotqol va Qurama tizmalari, janubdan Oloy va Turkiston tizmalari qurshab turadi, sharqdan esa Farg'ona tizmasi, g'arbda esa Mo'g'ultog' tizmasi o'rab turadi. Vodiyning g'arbiy tomonida tog'lar orasida boshqa tekisliklar - Toshkent oldi, Mirzacho'l, Sanzor-Nurota botig'i,

QANDAY?

Samarqand havzasi, Qashqadaryo va Surxondaryo botiqlari joylashgan.

Ular orasida alohida katta, bir million gektardan ortiq maydonni Mirzacho'l tekisligi egallaydi. Bu tekislik Sirdaryoning so'l sohilida, daryoning o'rta oqimida bo'lib, uning uzunligi shimoldan janubga tomon 160 kilometr, sharqdan g'arbga tomon esa 130 kilometr gacha boradi.

Toshkent oldi tekisligi shimoli-sharqda G'arbiy Tyan-Shanning tarmoqlari bo'lgan Ugom, Pskom, Chotqol va qurama tizmalari bilan chegaralanadi. Samarqand havzasi shimol va janubdan balandligi ikki ming metrgacha yetadigan Nurota, Qoratepa va Ziyovutdin-Zirabuloq past tog'lari bilan qurshab olingan. Nurota va Margutor, cho'ziq mintaqasi bo'lgan Sangzor-Nurota botig'i Samarqand havzasidan shimolda joylashgan. Qashqadaryo, Surxondaryo botiqlarini Hisor tizmasining tarmoqlari-Boysun tog' hamda Ko'hitang tog'lari



ajratib turadi.

Respublikaning tekislik qismi Ustyurt platosidan, Amudaryo etagi mansabidan hamda Qizilqum cho'lidan tashkil topgan. Ustyurt platosi Orol va Kaspiy dengizlari oralig'ida joylashgan bo'lib, atrofidagi tekisliklardan 30-150 metr baland ko'tarilib turadi.

Qizilqum Turkistonning kattaligi jihatidan ikkinchi cho'ldir. Bu qumli yerda uncha katta bo'lmagan tog'lar ko'tarilib turadi. Ulardan eng balandi Tomditog'-922 metrdir. Bu cho'lning o'rtasida respublikaning eng quyi nuqtasi - okean sathidan 12 metr pastda joylashgan Mingbuloq botig'i bor. Bu Kantog'ning janubida joylashgan Mingbuloq botig'ining uzunligi 40 km, kengligi 10-15 km. gacha yetadi. Respublika hududining eng baland nuqtasi Hisor tizmasidagi Hazrat Sulton cho'qqisi bo'lib, dengiz sathidan 4648 metr balanddir.

O'zbekistonning iqlimi keskin kontinental bo'lib, Respublika hududida yong'in kam, qishi kam qorli, sovuq bo'lib, yoz quruq va issiq, quyoshli kunlari ko'p, ikkita iqlim mintaqasida joylashgan: Mo'tadil va quruq subtropik. Quyosh charaqlab turadigan soatlarning yillik o'rtacha miqdori Respublikaning tekislik rayonlarida 2500-3130 atrofidadir. Quyoshning maydan oktyabrgacha charaqlab turishining davomiyligi jihatidan O'zbekiston O'rta dengiz va Amerika Qo'shma Shtatlarining Kaliforniya shtatidan oldinda turadi.

YOg'adigan yog'inlarning

IQLIMICHI?


yillik o'rtacha miqdori tekisliklarda 200-300 millimetrdi, tog'li rayonlarda goho 900-950 millimetrdi tashkil etadi.

Havoning yillik o'rtacha harorati 12-18 daraja issiq o'rtasida tebranib turadi. Yozning eng issiq oyi bo'lgan iyulda o'rtacha harorat tekisliklarida va tog' yonbag'irlarida 25-30 darajali issiqni, janubda esa 30-32 darajali issiqni tashkil etadi. Eng yuqori

yozgi haroratlar 42 darajadan oshadi, O'zbekistonning eng issiq joyi hisoblangan Termiz shahrida issiq soyada 50 darajagacha kuzatilgan.

Qish respublika hududida kam qorli bo'lib, yog'ingarchiliklar mayda yomg'ir bilan kechadi va shimolda deyarli besh oy, vodiya rayonlarida esa bir yarim oydan uch oygacha davom etadi. Yilning eng sovuq oyi yanvar hisoblanadi. Shu oyda harorat respublika shimolida - 8 darajagacha, goho 37 darajagacha pasayadi, janubda esa 20-25 darajagacha sovuq bo'ladi.

OTALAR YOZADI



SHU VATAN MUQADDASDIR

Kunlar sekin o'taverar umr asli bir nafasdir,
O'z elingda bek bo'lmasang saroylar tor, qafasdir,
Qolgan gaplar she'rga sig'mas bari bekor, abasdir-
Muqaddasdir bu tuproqlar shu Vatan muqaddasdir.

Muqaddasdir zarrasida bobolarim qoni bor
Har og'ochning, har maysaning ovozi bor, joni bor
Sohibqiron aziz etgan zo'r sharafi, zo'r shoni bor-
Muqaddasdir bu tuproqlar shu Vatan muqaddasdir!

Gar qul bo'lsa otalar farzandlar ham qul bo'lg'ay,
Cho'ri bo'lg'ay ayollar kelinlari tul bo'lg'ay.
Bosh egmagay mardlar hech xohi yongay, qul bo'lg'ay,
Muqaddasdir bu nuproqlar shu Vatan muqaddasdir.

Gar, ro'zg'oring tinch bo'lsa lablarda xanda bo'lg'ay,
Shoh erursan agarkim-egningda janda bo'lg'ay,
Vatan ishq qonlarda ruh ila tanda bo'lg'ay-
Muqaddasdir bu tuproqlar shu Vatan muqaddasdir!

Olis yo'lga chiqqan buyuk karvonimni Tangri qo'llar,
Elim degan, yurtim degan sorbonimni Tangri qo'llar,
Buyuk Temur, Jaloliddin orzu etgan bu yo'llar-
Muqaddasdir bu tuproqlar shu Vatan muqaddasdir!

Komil inson hamisha xalqini o'ylagaydir,
Uzoq ketsa sog'ingay salomlar yo'llagaydir,
Vatan suygan zotlarni Olloh ham qo'llagaydir-
Muqaddasdir bu tuproqlar shu Vatan muqaddasdir!

Tong otarim, kun botarim Turkistonim-Turonim,
Bobolarim tomirida yashab kelgan armonim,
Suyak surgan g'ururimsan ozod O'zbekistonim-
Muqaddasdir bu tuproqlar shu Vatan muqaddasdir!

Olis tarix qatlaridan kelar urho, g'ovurlaring,
Jayxun, Sayxun, Enasoyga taqalur tomirlaring
Amirqolik hindular ham asli sening bo'vurlaring-
Muqaddasdir bu tuproqlar muqaddasdir shu Vatan!

Dini islom quvvatidir Samarqandu, Buxoro,
Qo'llar ishda, dil duoda muslimdir har fuqaro
Bog'i dilkushodin nasim taraldi jahon aro-
Muqaddasdir bu tuproqlar shu Vatan muqaddasdir!

Yuksalishlar bo'ldi qancha bo'ldi qancha barbodlar,
Ochma moziy kitobin olamni bosgay dodlar,
So'ylasang so'zlar yonar, yozmoqqa yo'q savodlar-
Muqaddasdir bu tuproqlar shu Vatan muqaddasdir!

G'addor dushman do'stman deydi pinhona tig' qaraydi,
Ayamaydi mahramingni farzandingni avraydi,
Og'ir kunda hamma qochar Vatan va do'st yaraydi-
Muqaddasdir bu tuproqlar shu Vatan muqaddasdir!

Ko'zni ochg'il, uyg'on do'stim yorishdi istiqbollar,
Boshga qo'ndi Humo qushi bizniki chin iqbollar,
Bu kunlarni tavof ayla tomib labingda bollar-
Muqaddasdir bu tuproqlar shu Vatan muqaddasdir!

Ismatulla YO'LDOSHEV

МЕН ГЕНЕРАЛ БЎЛАМАН

A z i z bolajonlar! Sizlar mustaqil Vatan armiyasi haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lishlaringiz kerak.

O'zbekiston armiyasining salohiyati, tuzilishi, harbiy unvon va nishonlar, harbiy o'quv yurtlari haqidagi ma'lumotlarni «Cho'lpon» nashriyoti chop etgan „Men general bo'laman“, degan kitobni o'qib, bilib olasiz, deb o'ylaymiz.

Shuningdek, Vatan mudofaasi, armiya to'g'risida, harbiy qonun va qoidalar, umumqo'shin nizomlar haqida bilmoqchi bo'lsangiz ham ushbu kitobni albatta o'qing. Milliy matbuot markazida bo'lib o'tgan kitob taqdimotida muallif Irismuhammad Abdulkarimov haqida iliq gaplar aytiladi.

Qiziq, nega polkovnik Abdulkarimov siz bolajonlar uchun ushbu kitobni yozishga bel bog'ladiykin?

Vatanparvarlik ruhida bolalarimizga harbiy ma'lumotlar beruvchi zo'r kitob kerak, degan



g'oyani shoirimiz Omon Matjon bergan ekan. „Men general bo'laman“ kitobi tez orada qo'lma-qo'l bo'lib ketishi aniq.

Kitobdan o'rin olgan quyidagi qo'shiqni siz ham yod olib o'rganing.

ЎЗБЕКИСТОН ҲАРБИЙЛАРИ

И.АБДУКАРИМОВ шеъри,
П. МАКАРОВ мусиқаси.

Мардлик, шижоат-у, элга садоқат,
Шиорингиз эрур абадул-абад.
Муқаддас Қасамёд сизга қуш қанот,
Аждодлар руҳидан оласиз мадад.

Нақорат:

Мустақиллик меваси сиз,
Халқ тинчлигин қалқони сиз.
Эл суянчи, юрт таянчи,
Ўзбекистон ҳарбийлари!

Ватанни севмоқ иймондан билиб,
Ҳар илму сирларини мукаммал уқиб.
Бокира қизларнинг қалб қурида,
Ишқ утин ёқолган чақмоқ йигитлар.

Нақорат:

Қулда қурол, дилда иймон мустаҳкам,
Ўз постида сергак турар улар мудом.
Ёв утқазмас сарҳадидан ҳеч бир дам,
Шер юракли эр йигитлар, булинг омон.





Xurshid TOJIBOYEV, 5 yoshda. Taekvando bilan shug'ullanadi. O'ta sho'x, to'polonchi bo'lishiga qaramay, xayol surishni ham yaxshi ko'radi. Ayniqsa, ertaklar tinglashni juda sevadi. Ba'zan esa kutilmaganda o'zi ham jajji ertakchalar to'qiydi. Qani, bolajonlar, Xurshidning ertaklarini o'qib ko'ring-chi!



RANGLARNING JANJALI

Oyimning ko'ylagida har xil ranglar yashashardi: qizil, yashil, sariq, pushti, havorang, qora... Ular juda inoq ekanlar.

Bir kuni qizil rang xayol surib o'tiribdi-da, to'satdan debdi:

- Qaranglar-a, dunyoda eng chiroyli rang men ekanman-a!

- Ho-o, nega sen hammadan chiroyli bo'larkansan? - debdi sariq rang shoshilib.

- Dunyoda eng chiroyli rang menman! - baqiribdi pushti rang.

Havorang hech narsa demabdi-yu, xo'rsinib qo'yibdi. U ham o'zini eng chiroyli rang deb o'ylarkan-da...

Shu payt uxlab yotgan qora rang uyg'onib ketibdi. Qarasa, o'rtoqlari „Men chiroyliman!“ deb baqirib yotishganmish. U shosha-pisha qizil rangning biqiniga bir musht tushiribdi:


- O'chir ovozingni, dunyoda eng chiroyli rang - menman!

Qizil unga javoban xezlangan ekan, shapalog'i havo rangga tegibdi. U ham darrov javob qaytaribdi...

Shu tariqa ranglar ancha vaqt mushtlashishibdi va urishqoq qora rangni derazadan ko'chaga uloqtirib

yuborishibdi. Qora rang sovuqdan qaltirab, mushuklardan qo'rqib, uzoq o'tiribdi. Oxiri o'rtoqlarining oldiga qaytib kelibdi.

- Kechiringlar, ikkinchi urishmayman, - debdi qora rang.



- Meni ham kechiringlar, - debdi qizil rang. - Hamma ranglar ham chiroyliligini endi tushundim.

O'rtoqlari ularni kechirishibdi.

DARAXT HAQIDA ERTAK

Temiryo'l yoqasida bir daraxt o'sar ekan. U har kuni temiryo'ldan g'izillab o'tadigan poyezdga havas

bilan qarab qolarkan.

- Qayoqqa ketyapsan? - deb so'rarkan daraxt poyezddan.

- Andijonga, - derkan ancha nariga o'tib ketgan poyezd.

Daraxtning poyezdga juda havasi kelarkan. „Qaniydi, men ham sayohat qilsam, uzoq yurtlarni bir ko'rsam“, deb orzu qilarkan u.

- Meni ham o'zing bilan olib ket, - deb iltimos qilibdi bir kuni daraxt poyezddan.

- Men manavi temir izlardan chiqolmayman, - debdi poyezd. - Sen o'zing bir sakrab vagonimga chiqib olgin.

Daraxt sakrab vagonga chiqmoqchi bo'lgan ekan, ildizlarini yerdan sug'urib ololmabdi. Ungacha poyezd uzoqqa ketib qolibdi.

Ertasi kuni daraxt qarasa, yana poyezd pishillab kelayotganmish. U yana ildizlarini yerdan sug'urib olishga urinibdi. Shu orada poyezd g'izillab o'tib ketibdi. Daraxt judayam xafa bo'lib, yig'lab yuboribdi.

- Nega yig'layapsan? - deb so'rabdi uning yonidan o'tib ketayotgan shamol.

Daraxt unga o'zining juda sayohatga chiqqisi kelayotganini, ammo ildizlarini yerdan sug'urib ololmayotganini aytibdi. Shamol rahmdil ekan, ko'p o'ylab o'tirmay daraxtning tanasini o'rab olib, bir tortgan ekan, ildizlari sug'urilib chiqibdi.

- Rahmat, shamoljon! - debdi daraxt uchib ketgan shamolning ortidan va „gupp“ etib yerga qulab tushibdi. Chunki, tuproq orasida yashab o'rgangan ildizlar tuproqning ustida tikka turolmas ekanlar-da...

Ertasi kuni yana g'izillab o'tib ketayotgan poyezd qarasa, daraxt yerga qulab, quyoshda qurib yotganmish.

- Voy bechora, bunaqa sayohat qilgandan ko'ra, bir joyda o'sib, ko'karib turganing yaxshiydi-ya! - debdi poyezd achinib va pishillagancha yo'liga ravona bo'libdi.

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
DAVLAT MATBUOT
QO'MITASI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI**

BOSH MUHARRIR:

Umida ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Shuhrat AHMEDOV,

Jamoliddin FOZILOV,

Oynisa MUSURMONOVA,

Komil YUSUPOV,

Mukarrama MURODOVA,

Sunnatilla QO'ZIYEV,

Ergashvoy SARIQOV.

Noshir

«Ijod dunyosi»

nashriyot uyi

Hajmi A-3, 2 bosma taboq.
Gazeta „Sharq“ nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 50100
nuxxada ofset usulida bosildi.
Korxona manzili: „Buyuk
Turon“ ko'chasi, 41.
Buyurtma - G-2094
Gazetani
Azizxo'ja TILLAXO'JAEV
sahifaladi.
Navbatchi:
Ma'mura MADRAHIMOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi
№ 000137

Manzilimiz 700129,
Toshkent shahri, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-62-34.

ИЛТИЖО

Ҳой турналар, турналар,
Менга бундоқ дил очинг.
Сизсиз бағрим тирналар,
Меҳрингиз тўкиб сочинг.

Қаёққа кетяпсизлар,
Ташлаб азиз юртларни?
Мовий осмон, дала, боғ,
Ва шарқироқ сойларни?

Қандай дил узолдингиз,
Куз чоғи гул-чамандан.
Сиз барибир қайтарсиз,
Кетиб бўлмас Ватандан.



ТОНГ

Она куёш эрта уйғониб,
Ер юзини сийлайди аста.
Борлиқ унинг меҳрига қониб,
Мўъжиза рўй берар бирпасда.

Мажнунтолнинг сочини силаб,
Эркалайди майин шаббода.
Қалдирғочлар ҳаётни куйлаб,
Парвоз этар мовий самода.

Капалаклар қоқди қанот,
Гул очади сершоҳ бутоқлар.
Бахш этай деб гунчага ҳаёт,
Туғилади митти япроқлар.

Диляноза АЗИЗОВА,
Бағдод туманидаги
18-умумтаълим мактабининг
9-«Б» синф ўқувчиси



БУВИМ ҲИКОЯСИ

Рўмолим-ла тўсиб юзимни,
Беркитдимми билмадим кимдан?
Қайга олай қора кўзимни,
Юз ўгирдим ўзим эркимдан.

Қонхўр золим қонимни ичди,
Хўплаб-хўплаб пиёласидан.
Юрагимдан нолалар учди,
„Бахтиёрлик“ қиёфасида.

Шукур, шукур, шукур минг бора,
Кўра олдим ёруғ кунларни.
Тушингда ҳам кўрмагин болам,
Биз кечирган қора тунларни.